



## O'QUVCHI YOSHLARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK- PEDAGOGIK MASALALARI

Raximova Shaxlo Erkaboyevna

Xorazm viloyati Urganch tumani 13 sonli maktab Psixolog

Allaberganova Dilafruz Ruzmatovna

Texnologiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta`lim jarayonida o`quvchi yoshlarni kasbga yo`naltirish, kasb tanlash masalalari, shungdek, o`quvchilarni kasbga yo`naltirishda yosh bosqichlarini inobatga olish xususiyatlari bayon qilingan.

**Kalit so`zlar:** ta`lim jarayoni, kasbga yo`naltirish, kasbiy targ`ibot, extiyoj, kasb tanlash.

### KIRISH

O`quvchilarni kasbga yo`naltirishda faoliyat masalasi muhim masala xisoblanadi. Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yo`nalishda xarakat qilishga undaydigan extiyojlar shaxsning faolligi manbai bo`lib xisoblanadi. Extiyoj – jonli mavjudotning xayot kechirishning konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi xolatidir.

Kishining faolligi extiyojlarning qondirilishi jarayonida namoyon bo`ladi. Kishining extiyoji uni tarbiyalash jarayonida shakllanadi. Demak, kishining o`z extiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shakli egallashning faol, muayyan maksadga yo`naltirilgan jarayon sifatida aloxida ajralib turadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mustaqil O`zbekistonda o`quvchilarni tarbiyasiga nisbatan qo`yayotgan eng muxim talablardan biri ularda mexnat qilish extiyojini tarbiyalashdan iboratdir. Mexnat qilishga bo`lgan extiyojning yanada rivojlanishi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ko`pgina ishlab chiqarish jarayonlarini maksimal darajada avtomatlashtirish, mexnat sharoitlarini yaxshilash, ish vaqtini qisqartirish natijasida, faqat ijtimoiy foydali mexnatdagina o`zini namoyon eta oladigan buniyodkorlik kuchlarini jonlantirish oqibatida yuz beradi.

Umumiy ta`lim maktabini isloh qilishning asosiy yo`nalishlarida o`quvchilarning mexnat tarbiyasi va kasbga yo`naltirilishi qanday rol o`ynashiga aloxida e`tibor berilgan.

Extiyojlar kelib chiqishiga ko`ra tabiiy va madaniy bo`lishi mumkin.

Tabiiy extiyojlarda kishining faollik kasb etayotgan faoliyati, uning xayoti va uning avlodi xayotini saklash uchun zarur bo`lgan shart-sharoitlarga bo`ysunganlik ifodalanadi.



Madaniy extiyojlarda odamning faol faoliyati insoniyat madaniyatining maxsuliga bog`liq ekanligi ifodalanadi; uning ildizlari butunlay kishilik tarixining sarkadlariga borib taqaladi.

Ma`naviy jixatdan o`rinli bo`lgan extiyoj odam yashayotgan jamiyatning talablariga javob beradigan, ana shu jamiyatda qabul qilingan didlar, baxolar va dunyoqarashga mos keladigan extiyojlardir.

Extiyojlar o`z predmetining xarakteriga ko`ra moddiy va ma`naviy bo`lishi mumkin. Moddiy extiyojlarda kishining moddiy madaniyat predmetlariga qaramligi (ovqatlanishiga, kiyinishiga, uy-joyga, maishiy turmush ashyolariga va boshqa narsalarga extiyoj sezish) ma`naviy extiyojlarda esa ijtimoiy ong maxsuliga tobeligi ifodalanadi. Ma`naviy extiyojlar ma`naviy madaniyatni yaratish va o`zgartirishda o`z aksini topadi. O`quvchi o`z fikr-muloxazalari va tuyg`ularini boshqalar bilan baxam ko`rishga gazetalar, kitoblar va jurnallar o`qishga kinofilpmlar va spektakllar ko`rishga, muzika tinglashga va shu kabilarga extiyoj sezadi.

Ma`naviy extiyojlar moddiy extiyojlar bilan uzviy bog`liqdir. Ma`naviy extiyojlarni qondirish uchun, moddiy extiyojlar predmeti xisoblanmish moddiy narsalar (kitoblar, gazetalar, yozuv va nota qog`ozlari, buyoqlar va shu kabilar) talab qilinishi shubxasiz.

Shu tariqa, kelib chiqishiga ko`ra, tabiiy, shu bilan birga predmetiga ko`ra moddiy, kelib chiqishiga ko`ra madaniy xisoblangan extiyoj yo moddiy bo`lishi, yo predmetiga ko`ra maonaviy bo`lishi mumkin.

Agar xayvonlarning xatti-xarakati butunlay atrof muxit bilan belgilansa, kishining faolligi uning ilk yoshligidanoq butun insoniyat tajribasi va jamiyat talablariga ko`ra yo`naltirilib boriladi. Xatti-xarakatning bu turi shu qadar o`ziga xoslikka egaki, o`quvchilarni kasbga yo`naltirish psixologiyasida uning atash uchun maxsus termin – kasb faoliyati termini qo`llaniladi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Inson kasb faolligida «xarakat», «faoliyat», «xulq» tushunchalari bilan chambarchas bog`liq. SHaxs aynan turli kasb faolliklar doirasida shakllanadi, o`zligini namoyon qiladi xam. Demak, kasb faolligi yoki inson kasb faoliyati passiv jarayon bo`lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson kasb faolligini mujassamlashtiruvchi xarakatlar jarayoni kasb faoliyati deb yuritiladi.

YA`ni, kasb faoliyati – inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turlituman extiyojlardan kelib chiqadigan, xamda tashqi olamni va o`z-o`zini o`zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan uziga xos faollik shaklidir. Bu – moddiy ne`matlar yaratishga qaratilgan mexnat faoliyati, bu – yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati va shunga o`xshash.

Xar qanday kasb faoliyati real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko`rinishlarda namoyon bo`ladi. Qilinayotgan xar bir xarakat ma`lum narsaga – predmetga qartilgani uchun xam, faoliyat predmetli xarakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Masalan, ma`ruzani konspekt qilayotgan talabaning predmetli xarakati yozuvga qaratilgan bo`lib, u avvalo o`sha daftardagi yozuvlar soni va



sifatida o`zgarishlar qilish orqali bilimlar zaxirasini boyitayotgan bo`ladi. Kasb faoliyatining va uni tashkil etuvchi predmetli xarakatlarni aynan nimalarga yo`naltirilganligiga qarab, avvalo tashki va ichki kasb faoliyati farqlanadi.

Tashki kasbiy faoliyat shaxsni o`rab turgan tashqi muxit va undagi narsa va xodisalarni o`zgartirishga qaratilgan faoliyat bo`lsa, ichki kasbiy faoliyat birinchi navbatda aqliy faoliyat bo`lib, u sof kasbiy psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan ichki-aqliy, psixik kasbiy faoliyat tashki predmetli faoliyatdan kelib chiqadi. Dastlab predmetli tashki faoliyat ro`y beradi, tajriba orttirib borilgan sari, asta-sekin bu xarakatlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi. Xar qanday sharoitda xam barcha xarakatlar xam ichki psixologik, xam tashqi-muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boradi. Xar qanday faoliyat tarkibida xam aqliy, xam jismoniy-motor xarakatlar mujassam bo`ladi. Agar o`yayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi etakchi kasbiy faoliyat aqliy bo`lgani bilan uning peshonalari, ko`zлari, xattoki, qo`l xarakatlari juda muxim va jiddiy fikr xususida bir to`xtamga kelolmayotganligidan, yoki yangi fikrni topib undan mamnuniyat xis qilayotganligidan darak beradi.

Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soxa mutaxassislariga muxtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab o`quvchilarini ularning mayli, intilishi, qiliqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqlilagini aniqlab, so`ngra kasbga yo`llash kerak.

Kasbga yo`naltirish - bu ilmiy asoslangan va o`zini kasbini jamiyat ehtiyojlari sifatida, shuningdek, o`zini qiziqish va qobiliyatlarini xisobga olib, turg`un kasb tanlash uchun xayotga kirayotgan yoshlarga yordam beradigan psixolog-pedagog, tibbiyot va davlat tadbirlari tizimidir [1].

Bu tadbirlar jamiyat va shaxs qiziqishlarini umumlashtiradi. Kasbga yo`naltirish tizimi xar bir o`zining vazifalariga va yechish metodlariga ega bo`lgan tizimlar va boshqichlardan iboratdir. Butunligicha u maktab imkoniyati va vazifalari chegarasidan chiqib ketadi, umumdavlat tadbirlariga aylanib, qator boshqa ishtirokchilarning qo`shilishini talab qiladi.

Bular kasb-xunar kollejlari, oliy o`quv yurtlari, ishlab chiqarish korxonalari, qishloq xo`jaligi, transport va aloqa tizimi, kasbga yo`naltirish shaxs uchun individual, shuningdek, jamiyat uchun ahamiyatga egadir.

Bizning qobiliyatimizning aniq bir kasbga adashib tushishi tez-tez shaxsiy muvaffaqiyotsizlik bilan tugaydi. Ammo bu xatolardan shaxsnинг oz`i, oilasi qynaladi, shuningdek, butun jamiyat xam qynaladi.

Yoshlarni kasbga yo`naltirishda faoliyat masalasi muhim masala xisoblanadi. Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yo`nalishda xarakat qilishga undaydigan extiyojlar shaxsnинг faolligi manbai bo`lib xisoblanadi.

Extiyoj – jonli mavjudotning xayot kechirishning konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi xolatidir [3].



# "MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS"



Kishining faolligi extiyojlarning qondirilishi jarayonida namoyon bo`ladi. Kishining extiyoji uni tarbiyalash jarayonida shakllanadi.

Demak, kishining o`z extiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shakli egallashning faol, muayyan maqsadga yo`naltirilgan jarayon sifatida alohida ajralib turadi.

Yoshlarning kasb tanlashi asosan, o`rta maktabdan boshlanadi, shunga ko`ra, o`qituvchilar jamoasi bilan psixologlar oldida turli yoshdagi, jinsdagi maktab o`quvchilarini kasbga qiziqtirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish (o`zini-o`zi namoyon etish) kabi muhim vazifa turadi.

Bundan tashqari, psixologlar o`quvchilarning aql-idroki, qobiliyatlarini hamda muayyan kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash metodlari, usullari, texnologiyasi, shakllari, mezonlari va tarkibiy qismlarini ishlab chiqishlari, shuningdek, bu sohada ilmiy- tadqiqot ishlari olib borishlari zarur.

O`smirlar va ilk o`sprinlarning kasb tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo`lgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo bo`lganligadan bu jarayonda otaonalar, jamoatchilik va turli kasb ustalari ham faol qatnashishlari kerak, chunki yoshlar ko`p hollarda kattalarning maslahatlari va tavisyalarini hisobga olgan holda qat`iy bir fikrga, qarorga kelishlari mumkin.

Shuni ham aytib o`tish o`rinligi, maktab o`quvchilari kasb tanlash borasidagi o`z qarorlarini, ko`pincha, har tomonlama dalillab bera olmaydilar, biroq ularning ko`pchiligi bu masalaga ongli ravishda yondashishga intiladilar [4]. O`quvchilarni kasbga yo`naltirishni yosh bosqichlarida o`quvchilarda quyidagi mazmunga ega bo`ladi:

Boshlang`ich sinf o`quvchilarini kasbga yo`naltirishdan asosiy maqsad - ularni mehnat, kasb turlari, yo`nalishlari bilan tanishtirib borish va kasb faoliyatiga qiziqishni shakllantirishdan iborat.

Bunga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:

1.O`z-o`zini baxolay bilish malakalariga o`rgatish; 2. Intellektual va xissiy-irodaviy xislatlarini rivojlantirish;

3.Realistik jihatdan o`z-o`zini baholashni rivojlantirish.

5-7 sinf (o`rta yoshdagi) o`quvchilarini kasbga yo`naltirish mazmuni, ulardagi qiziqish, layoqat, shaxs sifatida jamiyatda tutgan o`rni to`g`risidagi tushunchalar va kasb tanlash ko`nikmasini shakllantirish zarurati bilan belgilanadi. Bo`lg`usi kasbiy faoliyatlar bu yoshdagi o`quvchilar uchun hayotdagi o`z o`mini belgilash va tayyorlashda turki, o`z shakllanish imkoniyatlariniochishi va kasb tanlashi uchun zarur bo`ladi. Bu yoshdagi o`quvchilarda ijtimoiy-psixologik layoqatlar, o`zi ulg`ayotganligada, yangi bir pozitsiyada o`ziga e'tiborida, atrofga va olamga munosabatida shakllanishi kerak.

8-9 sinf o`quvchilarida kasbga yo`naltirish ishlari mazmuni shaxsning ma`naviy xislatlari va jamiyat oldidagi burchi javobgarlik xislatlarini shakllantirish bilan ajralib turadi. Bu esa ulardan mustaqillik, tashabbus bilan chiqish, mustaqil



qaror qabil qilish xatti-xarakatlari natijasini bilishi va faoliyatini nimaga olib kelishini sezishi bilan belgilanadi.

8-9 sinf o`quvchilarida oldingi bosqichlarda olgan bilimlari va tajribalari asosida quyidagi yo`nalishlar bo`yicha kasbga yo`naltirish faoliyat amalga oshiriladi.

1. O`quv va maxsus fanlarni chuqur o`rganish asosida;
2. Diqqatini tanlagan faoliyatida kasbiy muxim sifatlarini shakllantirilishida;
3. Kasbiy rejalarini ustidan nazorat va ularni asoslanish darajasini ochib berishda;
4. Kasbiy faoliyatga o`zini tayyorlash yo`llari, o`ziga tashxis qo`yish, natijalarini baxolashda;
5. Ijtimoiy kasbiy ko`nikish, kasbni tanlash sabablari, kasbiy yo`nalish asoslari shakllanishida [2].

### **XULOSA**

O`quvchilarni ta`lim tizimida mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb-hunarini o`z qobiliyatlariga yarasha to`g`ri kasb tanlashlariga erishish uchun mакtab o`qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik (shuningdek, akademik, tashkilotchilik, pertseptiv va h.k.) qobiliyatları yuksak bo`lishi, fan asoslarini turmush bilan bog`lab o`rganilishi, to`garak va qo`shimcha, yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarda kasb-hunar to`g`risida ma`ruzalar o`qilishi, suhbatlar, munozaralar o`tkazilishi, sayohatlar, uchrashuvlar, kasb-hunar fotoko`rgazmalari tashkil qilishlari zarur.

Shuningdek, yoshlarning kasb tanlashdagi reallikni vujudga keltirish maqsadida mакtabda ilg`or kasb egalari, kasb faxriylari, kasb sulolalari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, kechalar va ma`ruzalar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Ushbu tadbirlar o`quvchining shu kasbga bo`lgan qiziqishini yanada qat`iyashishini vujudga keltiradi.

### **REFERENCES:**

1. Карандашев В.Н. Психология введение в профессию. 2- е изд - М.: Смысл, 2003. - 19 с.
2. Nabijonova D. O`quvchilarni kasbga yo`naltirish psixologiyasi. Toshkent: 2002. - 38 b
3. Xaydarov F.I., Xaliliova N.I. "Umumiy psixologiya". - Toshkent: Mumtoz so`z, 2010. – 97 b
4. G`oziev E.G. Ontogenet psixologiyasi - Toshkent: Noshir , 2010. - 73 b.